

Andijon viloyatida kichik tadbirkorlik

Yanvar-iyun
2019-YIL


E'tibor bering!

- 2019-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 69,5 %ni tashkil etdi.
- 3,2 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilindi.
- 2019-yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 11,5 birlikni tashkil qildi.

2019 yil yanvar-iyun 3,2 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1450 taga ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar sanoatda (29,0%), savdoda (39,7%), qurilishda (11,3%), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (4,1%), qishloq va o'rmon xo'jaligida (3,9%), boshqa tarmoqlarda (8,6%), yuklash va saqlashda (3,4%) ni tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2019 yilning yanvar-iyunda kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	o'lchov birligi	2018 y.	2019 y.	(+/-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlik	21683	25726	4043
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar	birlik	1798	3248	1450
YaIM	%	72,9	69,5	-3,4
Sanoat	%	20,9	22,2	1,3
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	99,2	96,4	0,2
Investitsiya	%	62,5	49,4	-13,1
Qurilish	%	98,0	95,9	-2,1
Savdo	%	90,7	88,1	-2,6
Xizmatlar	%	72,2	69,5	-2,7
Yuk tashish	%	91,9	94,5	2,6
Yuk aylanmasi	%	68,2	69,3	1,1
Yo'lovchi tashish	%	96,5	96,0	-0,5
Yo'lovchi aylanmasi	%	96,9	96,2	-0,7
Eksport	%	46,8	65,1	18,3
Import	%	18,6	14,4	-4,2


**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar
va mikrofirmalar**

(birlikda)

Hududlar	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun
Andijon viloyati	1798	3248
Andijon shahri	518	974
Xonobod shahri	54	63
Oltinko'l tumani	125	156
Andijon tumani	126	236
Baliqchi tumani	66	142
Bo'z tumani	56	63
Buloqboshi tumani	47	83
Jalaquduq tumani	58	130
Izboskan tumani	99	197
Ulug'nor tumani	32	42
Qo'rg'ontepa tumani	96	175
Asaka tumani	166	286
Marhamat tumani	88	174
Shahrixon tumani	107	256
Paxtaobod tumani	84	145
Xo'jaobod tumani	79	126

2019 yilda yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Andijon shahrida - 974 ta, Asaka tumanida - 286 ta, Shahrixon tumanida - 256 ta, Andijon tumanida - 236 ta, Izboskan tumanida - 197 ta, Qo'rg'ontepa tumanida - 175 ta. Marhamat, Oltinko'l, Paxtaobod, Baliqchi, Jalaquduq, Xo'jaobod tumanida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib 174-156 tani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Buloqboshi, Xonobod shahri, Bo'z hamda Ulug'nor tumanlarida 83-42 ta.

2019 yil yanvar-iyun holatiga yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi



2019 yil yanvar-iyun holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Andijon sh.da - 30,0 %, Asaka tumani - 8,8 %, Shahrixon tumani - 7,9 %, Andijon tumani - 7,3 %, , Izboskan tumani 6,1 %, Qo'rg'ontepa tumani - 5,4 %, Marhamat tumani - 5,4 %, Oltinko'l tumani - 4,8 %, Baliqchi tumani - 4,4 %, Paxtaobod tumani - 4,4 %, Jalaquduq tumani - 4,0 %, Xo'jaobod tumani - 3,9 %, Buloqboshi tumani va Xonobod shahri - 2,5-1,9 % , Bo'z tumani - 1,9 % eng past ko'rsatkich Ulug'nor tumanida - 1,3 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar**

(birlikda)

	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun
Jami	1798	3248
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	158	127
Sanoat	469	943
Qurilish	237	367
Savdo	479	1288
Tashish va saqlash	127	110
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	81	134
Axborot va aloqa	38	56
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	95	62
Boshqa turdagi xizmatlar	114	161

2019 yil yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar eng ko'p savdoda 1288 ta, shuningdek :


Sanoatda - 943 ta.;

Qurilishda - 367 ta.;

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 127 ta.;

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 134 tani tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar to'g'risida ma'lumot




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda – 1288 ta, sanoatda - 943 ta, qurilishda - 367 ta, boshqa turdagi xizmatlarda - 161 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda-134 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 127 ta, tashish va saqlashda - 110 ta, sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda - 62 ta, axborot va aloqada - 56 tani tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon sh. (20,6 birlik), Ulug'nor (19,8 birlik), Xodjaobod (13,8 birlik), Bo'z (13,1 birlik), Asaka (11,9 birlik), Baliqchi, (11,4 birlik) va Marhamat (11,3 birlik) tumanlariga to'g'ri keladi.


O'rtacha ko'rsatkich oralig'ida 10,9-8,3 birlik Oltinko'l (10,9 birlikda), Honobod sh. (9,7 birlikda), Andijon (9,6 birlikda), Jalaquduq (9,3 birlikda), Kurgontepa (9,3 birlikda), Paxtaobod (8,3 birlikda) tumanlariga. Shahrixon (7,4 birlikda), Izboskan (7,4 birlikda) va Buloqboshi (7,1 birlikda) ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

2019 yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).




Agar, 2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 11,8 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda bu ko'rsatkich 11,5 birlikka yetdi -0,3 birlikka kamaydi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga.




Quyida, 2019 yilning yanvar-iyunida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 22,2 %, qurilishda - 95,9 %, investitsiyada - 49,4 %, savdoda - 88,1 %, eksportda - 65,1 %, importda - 14,4 % va xizmatlar sohasidagi - 69,5 % ulushi aniq ko'rsatilgan.

2019 yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi




2019 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 69,5 % ni tashkil qildi (2018 yilning yanvar-iyunida 72,9 %). YaIM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.

Kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar-iyun holatiga, %



Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



**2019 yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (%)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmat	Investitsiya
Andijon viloyati	22,2	95,9	69,5	49,4
Andijon shahar	27,4	94,0	42,7	23,5
Xonobod shahar	15,9	100,0	95,3	53,9
<i>Tumanlar:</i>				
Andijon	74,9	100,0	83,51	70,9
Asaka	2,6	100,0	94,2	18,7
Baliqchi	99,2	100,0	95,4	62,7
Bo'z	80,0	100,0	95,2	65,1
Buloqboshi	100,0	100,0	89,6	79,6
Jalaquduq	74,8	72,8	92,8	70,7
Izboskan	67,8	100,0	95,7	66,1
Ulug'nor	61,9	63,3	78,2	39,4
Marhamat	77,4	100,0	97,3	53,1
Oltinko'l	68,5	100,0	94,5	70,5
Paxtaobod	70,8	100,0	96,5	84,6
Xo'jaobod	90,1	100,0	96,9	71,7
Shahrixon	90,0	100,0	91,7	71,2
Qo'rg'ontepa	79,0	100,0	95,2	38,1

Hududlar bo'yicha **sanoat** sohasining yuqori ulushini Buloqboshi tumani (100,0 %), Baliqchi tumani (99,2 %) va Xo'jaobod (90,1 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Marhamat (97,3 %), Xo'jaobod (96,9 %), Paxtaobod (96,5 %), Izboskan (95,7 %), Baliqchi (95,4 %), Bo'z (95,2 %) va Kurgontepa (95,2 %) tumanlari tashkil etadi.

Investitsiyada - Paxtaobod (84,6 %), Xo'jaobod (71,7 %), Shaxrihon (71,2 %), Andijon (70,9 %), Jalaquduq (70,7 %) va Oltinko'l (70,5 %) tumanlari tashkil etadi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan



2019 - **yilning**
Yanvar-iyundagi



Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 3305,3 mlrd.so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishning 22,2 %) yoki 2018 yilning yanvar- **iyundagi** nisbatan o'sish sur'ati 109,9 % ni tashkil qildi;

1628,8 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 49,4 %) o'zlashtirildi va 2018 yilning yanvar- **iyundagi** nisbatan o'sish sur'ati 110,9 %ni tashkil qildi;



1824,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 95,9 %) bajarildi va 2018 yilning yanvar- **iyundagi** nisbatan o'sish sur'ati 113,9 %ni tashkil qildi;

3037,8 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (viloyatning jami xizmatlar hajmining 69,5 %), 2018 yilning yanvar- **iyundagi** nisbatan o'sish sur'ati 108,6 %ni tashkil qildi;



chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 88,1 % yoki 5115,9 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 102,5%ni tashkil qildi) shakllantirildi;

186,1 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 65,1 %) miqdorida mansulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi.




avtomobil transporti yuk aylanmasining 3,2 %ga (viloyatning jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 69,2 %) ko'payishi ta'minlanadi;

yo'lovchi aylanmasining esa 0,8 %ga (umumiy yo'lovchi aylanmasining 96,2 %) ko'payishi ta'minlandi.




Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning, jami eksport hajmidagi ulushi, %



2019 yil yanvar-iyun holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Paxtaobod, Marhamat, Ulug'nor, Buloq'boshi, Baliqchi, Bo'z tumanlari (100,0 %)ni tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Xonobod shahri (5,9 %) ni tashkil etmoq'da.


2019 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (628,5 mlrd.so'm), Shaxrihon tuman (364,3 mlrd.so'm), Andilon (336,0 mlrd.so'm), Baliqchi (278,3 mlrd so'm), Asaka (240,5 mlrd.so'm) va Xo'jaobod (237,1 mlrd.so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Pahtaobod (100,7 mlrd.so'm), Xonobod (82,7 mlrd.so'm), Ulug'nor (54,1 mlrd.so'm) va Boz (53,5 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2019 yil yanvar-iyun holatiga jami sanoat maxsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat maxsulotidagi eng yuqori ulushi Buloqbooshi tumani (100,0%), Pahtaobod tumani (99,2%), Baliqchi tumani (90,1%), Shaxrixon tumani (90,0%) va Bo`z tumani (80,0%). Ulug'nor (61,9 %), Andijon shahri (27,4%), Xonobod shahri (15,9%) va Asaka (2,6%) tumanlarida kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.


2019 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri (1329,6 mlrd.so'm), Shahrixon (730,3 mlrd.so'm), Asaka (568,9 mlrd.so'm), Kurgontepa (484,5 mlrd.so'm) va Andijon (285,8 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




2019 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Andijon shahri (720,1 mlrd.so'm), Andijon tumani (208,5 mlrd.so'm), Shahrixon tumani (116,3 mlrd.so'm), Oltinko'l tumani (100,1 mlrd.so'm), Asaka tuman (86,1 mlrd so'm) , va Izboskan (79,0 mlrd so'm) tumanlarda qayd etildi.




2019 yil yanvar- iyunida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur`ati



Hududlar bo`yicha ko`proq xizmatlar hajmi Andijon shahri (872,2 mlrd.so'm), Asaka tumani (269,5 mlrd.so'm) va Shahrixon tumani (244,0 mlrd.so'm), Andijon (201,0 mlrd.so'm) va Baliqchi (186,4 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2019 yil II-chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 162 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi. Ulardan sanoat korxonalari - 48 (29,6 %) , qurilish - 19 (11,7%), savdo - 60 (37,1 %), xizmatlar sohasi - 28 (17,3 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 7 (4,3 %) tashkil etdi.

2019 yil II- chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi




Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining ulushi Andijon shahrida - 62 ta (38,3 %), Asaka tumanida - 16 ta (9,9 %), Izboskan tumanida - 8 ta (5,0 %), Oltinko'l tumanida - 9 ta (5,5 %), Baliqchi tumanida - 12 ta (5,5 %). Jalaquduq tumanida - 4 ta (2,5%), Marhamat tumanida—6 ta (9,7 %), Paxtaobod tumanida —3 ta 1,8 %ni tashkil qildi.

2019 yil II - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlik




2019 yil II - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, %



Kuzatuv ma`lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 36,8 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 63,2 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 40,0 % va 56,7 %, xizmatlar sohasida – 10,7 % va 85,7 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 0,0 % va 71,4 %, sanoatda – 27,1 % va 60,4 %ni tashkil qilganini ko`rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 12,5 %, qurilishda – 0,0 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 28,6 %, xizmatlarda – 3,6 % va savdoda – 3,3 %ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2019 yil II-chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 72,9 % sanoat korxonalari, 81,7 % – savdo, 78,6 % – xizmatlar, 57,1 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 84,2 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: D.Kasimov

Tel.: (0371) 230-82-54,